*Chakana kreditlash qo'mitasining*
*2026 yil "7" apreldagi*
*2026-17- sonli*
*majlis bayoniga 19-sonli ilova*

# KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

| | |
|---|---|
| **Kredit mahsuloti turi va nomi** | Overdraft "Online" |
| **Qarz oluvchiga qo'yiladigan talablar** | "Asia Alliance Bank" ATBda oylik ish haqi yoki pensiya to'lovi doirasida ochilgan so'm bank karta hisob raqamiga ega bo'lgan, 21 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan jismoniy shaxs |
| **Overdraft valyutasi** | O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'm |
| **Overdraft miqdori** | Skoring tahlili natijasiga ko'ra qarz oluvchining o'rtacha oylik ish haqi yoki pensiyasining 3 (uch) barobarigacha bo'lgan miqdorda. |
| **Overdraft maqsadi** | Maqsadsiz |
| **Overdraft muddati** | 12 oy muddatga |
| **Taqdim etish shakli** | Qarz oluvchining bankda ish haqi yoki pensiya to'lovi doirasida ochilgan so'm bank kartasiga pul o'tkazish yo'li orqali |
| **Foiz stavkasi** | Yillik – 22% |
| **Asosiy qarz o'z vaqtida to'lanmaganlik uchun foiz stavkasi** | Yillik – 33% |
| **Foiz hisoblash shartlari** | Foizlar o'zgarmas stavkada faqat mablag'lardan haqiqiy foydalangan qismiga kunlik hisoblanadi. |
| **Overdraft ta'minoti** | Ta'minot talab etilmaydi (bunda overdraftning 125 foizi miqdorida qarz oluvchini baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urtalash bo'yicha sug'urta polisi rasmiylashtiriladi);<br>**Sug'urta bilan bog'liq barcha xarajatlar bank tomonidan qoplanadi.** |
| **Overdraft qaytarish tartibi** | Overdraftning limiti 6 oy davomida qayta tiklanishi mumkin va limit 7-oydan boshlab differensial usulda kamayib boradi. |
| **Qo'shimcha shartlar** | • Qarz oluvchining bank kartasi hisob raqamida "Asia Alliance Bank" ATB tizimida oxirgi 6 oy davomida oylik ish xaqi yoki pensiya to'lovlari aylanmasiga ega bo'lishi lozim;<br>• Joriy muddati o'tgan kredit va foiz qarzdorligi mavjud shaxslarga onlayn-overdraft ajratilmaydi;<br>• Ijro hujjatlari bo'yicha qarzdorligi mavjud fuqarolarga onlayn overdraft ajratilmaydi (MIB).<br>• Ijobiy kredit tarixiga ega bo'lishi. Bunda;<br>30+ 10 tagacha yo'l qo'yiladi;<br>60+ 5 tagacha yo'l qo'yiladi;<br>90+ 1 tagacha yo'l qo'yiladi; |
| **Ishlash mexanizmi** | • "Asia Alliance bank" ATBning mobil ilovasi orqali foydalaniladi.<br>• Oylik ish xaqi loyihasi uchun ochilgan bank kartasining balansidagi mijozning o'z mablag'lariga qo'shimcha ravishda bank tomonidan belgilangan limit miqdori bilan birgalikda (umumiy miqdor) aks ettiriladi.<br>• Bank tomonidan belgilanadigan overdraft limiti balansdan tashqari hisob raqamlarda yuritiladi. |